



UDK:82-93:378(575.1)

**Ravshan ABDUZOHIROV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi*  
E-mail: [ravshan.abduzohirov@gmail.com](mailto:ravshan.abduzohirov@gmail.com), [abduzohirov\\_r@nuu.uz](mailto:abduzohirov_r@nuu.uz)  
**Rayxona NORBOYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
E-mail: [norboboyevarayhona2007@gmail.com](mailto:norboboyevarayhona2007@gmail.com)

*O'zRFA Tarix instituti professori, t.f.d A. Ashirov taqrizi asosida*

## THE ROLE OF LANGUAGE AND COMMUNICATION IN THE LIVES OF UZBEK STUDENTS

### Annotation

This article comprehensively analyzes the role of language and communication in the lives of students. Language is not only a means of communication, but also an important factor in social consciousness, culture and personal identity, and various views and theories are given importance. The article substantiates the need for effective communication between students, mutual understanding, respect for cultural diversity and the development of speech culture. Attention is also paid to changes in communication forms and language styles under the influence of different dialects. The article highlights the role of language and communication in the formation of a student's personality based on pedagogical and psychological approaches.

**Key words:** Uzbek, language, student, communication, etiquette, identity, dialect, linguistics, anthropology, communication culture, communication time.

## РОЛЬ ЯЗЫКА И ОБЩЕНИЯ В ЖИЗНИ УЗБЕКСКИХ СТУДЕНТОВ

### Аннотация

В статье всесторонне анализируется роль языка и общения в жизни студентов. Язык является не только средством общения, но и важным фактором общественного сознания, культуры и личной идентичности, а также интерпретируется как средство общения, и ему придается важное значение в различных взглядах и теориях. В статье обосновывается необходимость эффективного общения, взаимопонимания, уважения к культурному многообразию, развития культуры речи у обучающихся. Также уделяется внимание изменениям в моделях общения и стилях языка под влиянием различных диалектов. В статье рассматривается роль языка и коммуникации в формировании личности учащегося на основе педагогических и психологических подходов.

**Ключевые слова:** Узбек, язык, студент, общение, этикет, идентичность, диалект, лингвистика, антропология, культура общения, время общения.

## O'ZBEK TALABARI HAYOTIDA TIL VA MULOQOTNING O'RNI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalar hayotida til va muloqotning tutgan o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniyat va shaxsiy identifikatsiyaning muhim omili sifatida talqin etiladi va turli xil qarash va nazariyalarga ham ahamiyat beriladi. Maqolada talabalar o'rtasidagi samarali muloqot, o'zaro tushunish, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va nutq madaniyatini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, turli shevalar ta'sirida muloqot shakllari va til uslublaridagi o'zgarishlarga ham e'tibor qaratilgan. Maqolada pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida til va muloqotning talaba shaxsini shakllantirishdagi roli yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek, til, talaba, muloqot, etiket, o'zlikni anglash, sheva, lingvistika, antropologiya, muloqot madaniyati, muloqot vaqti.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida milliy til va madaniyat masalalari insoniyat taraqqiyotining markaziy muammolaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'p millatli va madaniy jihatdan boy hududlarda shevalarning roli sezilarli darajada ahamiyat kasb etadi. Sheva – tilning norasmiy, mintaqaviy shakli bo'lib, u xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini o'zida aks ettiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar – turli viloyatlardan kelgan, har xil shevalarda so'zlashuvchi yoshlar jamiyatidir. Ularda muloqot vositasi sifatida adabiy til bilan birga, o'z ona shevalari ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar hayotida shevalarning o'rni ularning o'zlikni anglash, madaniy merosni saqlab qolish, ijtimoiy muloqotga kirishish kabi omillar bilan chambarchas bog'liq.

Shevalar til madaniy o'zlik va mintaqaviy tafakkurni ifodalovchi vosita bo'lib, har bir hududning o'ziga xosligini, turmush tarzini va madaniyatini aks ettiradi. Talabalar

shevasini saqlash orqali o'z ildizlariga sodiq qoladi va mintaqaviy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllanadi. Sheva orqali ular o'zini tabiiy va erkin ifoda etadi, bu esa yaqin do'stlik aloqalarining shakllanishiga yordam beradi[1]. Universitetda turli hududlardan kelgan talabalar bir-birining shevasini o'rganib, til va madaniyatni yanada boyitadi.

**Metodlar.** Tadqiqotda ishtirokiy kuzatuv, anonim so'rovnomalar va intervyu metodlari qo'llanildi. Ishtirokiy kuzatuv orqali talabalar muhitida to'g'ridan-to'g'ri kuzatish olib borilib, keng ma'lumotlar olindi. Ochiq so'rovnomalar talabalar fikrini erkin ifoda etishga yordam berdi. Intervyu esa talabalar muloqot madaniyati, shevalar va ijtimoiy farqlarga nisbatan qarashlarini chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek talabalari hayotida til va muloqotning o'rni haqida o'rganishda turli adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, sohaga oid

dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va etnografik tadqiqotlar asos qilib olindi. Mazkur mavzu yuzasidan N.Ostroumov, V.Nalivkin va N.Likoshin, O.Suxareva, B.Karmisheva, F.Lyushkevich, Y.Polivanov va S.Gubayeva kabi etnograflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahsinga sazovordir. Mahalliy olimlardan K.Shoniyoov, I.Jabborov, A.Ashirov, U.S.Abdullaev, T.Salimov, Z.Rasulova, A.Qayumov, I.Xo'jaxonov va N.Narziyevlarning ilmiy tadqiqotlari tahlilida yoshlarda muloqot madaniyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**Muhokama va natija.** Til – jamiyat a'zolari o'rtasida muloqot vositasi bo'lib, orqali axborot almashiladi, tajriba avloddan-avlodga o'tadi. Sheva esa tilning muayyan hudud yoki ijtimoiy guruh doirasida shakllangan variantidir. Har bir sheva o'zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, Farg'ona vodiysida ishlatiladigan "bo'laman" o'rniga "bulaman", "qilishadi" o'rniga "qiladi" kabi variantlar shevaga xos xususiyatlardir. Bu xususiyatlar orqali inson o'zining geografik, madaniy ildizlarini namoyon qiladi. Talabalar o'rtasida muloqotda ham shevalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda mavjud arealda yirik madaniyat vakillari ustunlik qiladi. Xususan, Talabalar turar joyida 1 ta xonada 4 nafar talabadan 1 nafari farg'onalik, 3 nafari xorazmlik bo'lsa, bu yerda xorazm shevasi ustunlik qiladi. Shevalar ijtimoiy-lingvistik jihatdan identifikatsiya vositasi, madaniy xotira va samimiy muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Talabalar hayotida bu funksiyalar ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular o'z shevalarida muloqot qilib, o'zlariga qulay muhit yaratadi, tez yaqinlashadi. Ayniqsa yotoqxonalarda bir xil shevada so'zlashadigan talabalar oson do'stlashadi.

Talaba o'z shevasidan foydalangan holda o'zini muayyan hudud vakili sifatida anglaydi. Bu identik hissiyot uning madaniy o'zligini saqlashiga, o'zini qadrlashiga va guruhni birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Boshqa mintaqa shevasini o'rganish esa talabalar orasida hurmat va ijtimoiy yaqinlikni kuchaytiradi. Shevada muloqot qilish tabiiylik va samimiyatni ta'minlaydi, turli shevalarni eshitish esa talabalarni multimadaniy muhitga moslashishga undaydi. Har bir sheva o'z mintaqasining qadriyat va urf-odatlarini aks ettirib, madaniyatni saqlashga xizmat qiladi. Biroq, dars jarayonida adabiy tilga rioya qilish muhim, chunki shevaga xos talaffuz va leksika yozma nutqda xatolarga olib kelishi mumkin. Shu bois, talabalar adabiy tilni chuqur o'rganish bilan birga, o'z shevasidan joyida va to'g'ri foydalanishni ham bilishlari kerak. Ba'zi hollarda talabalar o'z shevalari sabab masxara qilinadi yoki kamsitiladi. Masalan, qipchoq shevasida so'zlashuvchi "jo'qchilar" shahar madaniyatida moslashuvida boshqa madaniyat vakillari tomonidan kamsitilish holatlari kuzatiladi. Ularga nisbatan, "dashtlik", "janqovul" va boshqa atamalar qo'llanilib, ularni kamsitishadi. Bu holat konfliktlarga ham olib keladi va bu talaba o'z shevasidan uyalishiga olib keladi. Shevasi boshqa bo'lgan talabalar o'zini chetroqda ko'rishi ham mumkin. Buni ilmiy tilda ijtimoiy ajralish deyiladi. Talaba o'z shevasini hurmat qilgan holda, adabiy tilni ham mukammal egallashi kerak. Bu ikki tizim bir-birini inkor etmasligi, balki to'ldirishi zarur. Rasmiy muhitda – adabiy til. Norasmiy, yaqin muloqotda – sheva. Shunday muvozanat orqali har ikki til qatlamining ijobiy jihatlari saqlanadi[2]. Bu jihatlarga to'liq amal qilish, talabalar madaniy munosabatlarida salbiy muammolarni keltirib chiqarishni oldini oladi. Talabalar hayotida shevalarning eng ahamiyatli tomoni shundaki, talaba doim shevasi bir xil bo'lgan o'z hududidan bo'lgan talaba bilan tezroq muloqotga kirishadi va talabalar orasida guruhlar kelib chiqishlariga ham olib keladi. Talabalar bunday guruhlarini asosan yotoqxonalarda ko'rishimiz mumkin. Yotoqxonalarda joylashishda ham odatda xonadoshlar bir viloyatdan bo'lishlariga intilishadi.

N.P.Ostroumovning tadqiqotlarida o'zbeklarga xos antropologik tasniflar keltirilgan[3]. N.P.Ostroumov, V.P.Nalivkin va N.S.Likoshin kabi olimlar tomonidan olib borilgan kuzatuv va tadqiqotlar orqali o'sha davr yoshlari, xususan talabalar qanday dunyoqarashga ega bo'lganlari, ularning kiyinish madaniyati, til va nutqdagi o'ziga xosliklari hamda muloqot etiketi haqida qimmatli ma'lumotlar olamiz. Bu olimlar tomonidan keltirilgan antropologik tasniflar orqali talabalar shunchaki bilim egallovchilar emas, balki o'z davrining madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy guruh sifatida qaralganini ko'rish mumkin. N.P.Ostroumovning etnografik kuzatuvlarida ijtimoiy hayotda ustoz va shogirdlar o'rtasidagi muloqot etiketlarini ham misol sifatida keltiradi. Jumladan, o'rnatilgan tartibga ko'ra, shogird doimo o'z ustozidan orqada yurishi, o'tirganda ustozidan pastda o'tirishi, ustozni oldida qimirlamasligi, yo'talmasligi, tupurmasligi, chekmasligi (sigaret yoki nosvoy), baland ohangda so'zlashmasligi, kir oyoqlari bilan o'tirmasligi, ko'kragi ochiq bo'lmasligi, boshida doimo do'ppi bo'lishi va belbog'i tartibli bo'lishi, ipak kiyim kiyimasligi hamda ibodatga doim tayyor turishi kerak bo'lgan. Agar ustoz o'z shogirdiga yuqoriga o'tirishni buyursa, hech qanday e'tirozsiz yuqoriga o'tirishi kerak bo'lgan. Ustozning imo-ishorasi va qarashlaridan uning nima demoqchiligini anglashi, bergan topshiriqlarini so'zsiz bajarishi shart bo'lgan. N.P.Ostroumovning ushbu fikrlarini keltirishdan maqsadi, o'zbeklar jamoaviy munosabatlaridagi muloqot madaniyatining ijtimoiy tartibga solingan me'yoriy qoidalardan iborat ekanligi bilan izohlagan[3]. Yuqorida qayd etilgan ustoz-shogird munosabatlariga oid etnografik kuzatuvlar o'zbek xalqining bilim beruvchilar va bilim oluvchilar orasidagi muloqot madaniyati chuqur ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga asoslanganini ko'rish mumkin. Bu munosabatlar shunchaki odob-axloq doirasidagi ko'rsatmalar emas, balki jamiyatning ichki tartibi, hurmat va ehtirom tamoyillariga qurilgan mustahkam ijtimoiy tizim bo'lgan. Shogirdning ustoz oldidagi har bir harakati - yurishidan tortib, kiyinishigacha, hatto ichki ruhiy holatiga qadar tartibga solingan. Bu esa o'z navbatida yosh avlodni izzat, ehtirom, kamtarlik va itoat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Bizning fikrimizga ko'ra, bunday an'analar nafaqat o'z davrida ijtimoiy tartibni saqlashda muhim rol o'ynagan, balki bugungi kunda ham ma'naviy tarbiyaning asosi sifatida qayta e'tiborga loyiqdir. Ustozga hurmat, so'zsiz itoat, andisha va odob kabi qadriyatlar hozirgi yoshlar hayotida ham muloqot madaniyatini rivojlantirish, ijtimoiy muvozanatni saqlashda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu qadriyatlarni chuqur o'rganish va yoshlar ongiga singdirish orqali biz jamiyatda hurmat, mehr, axloqiy mas'uliyat kabi muhim fazilatlarni mustahkamlashimiz mumkin, deb hisoblaymiz. Axborotchilar bergan ma'lumotlarga ko'ra[11], hozirgi kunda Ustozlar va Talabalar o'rtasida munosabatlar an'anaviylikdan zamonaviylikka ko'chgan. Xususan, 1-kurs talabalarini oraliq nazoratlardan bilimsizligi sababli o'taolmagan. Bunda Ustozni ayblagan holda jamoat joylarida Ustozga salom bermaslik holatlari kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga qiziqqan tadqiqotchilardan N.S.Likoshin Markaziy Osiyo aholisining oilaviy va ijtimoiy munosabatlaridagi odoblar haqida boy etnografik materiallarga tayanib qiziqarli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Likoshin Turkiston aholisi orasida salomlashishda qo'l berib ko'rishish va o'pishib ko'rishish odoblari haqida ham tadqiqotlarida keltirib o'tadi. Shuningdek, N.S.Likoshin o'z tadqiqotlarida muloqot madaniyatidagi etnik va hududiy o'ziga xosliklariga ham alohida e'tibor qaratgan. Bunda yoshlarda shevalarning ahamiyati haqida yozadi[4]. Sheva talabalar muloqoti uchun katta ahamiyatga egadir. Bu muloqotda samimiylik va ishonchni oshiradi. Bugungi talaba yoshlarda ham muloqot

uslublari, salomlashish odobi, til madaniyati va shevalardan foydalanish ko'lamini ularning ijtimoiy madaniyat darajasini ko'rsatadi. Aynan shuning uchun ham tarixiy-etnografik tadqiqotlarga asoslanib, bugungi talabalik madaniyatini yanada boyitish va mustahkamlash zarur, deb hisoblaymiz. Har bir hududning o'ziga xos til boyligi va muloqot an'analari qadrlash, yoshlar orasida madaniy xilma-xillikni anglash va hurmat qilish muhim ahamiyatga ega.

XX-asrda O'rta Osiyoda O.A.Suxareva[5], B.X.Karmisheva, F.D.Lyushkevich, Y.D.Polivanov va S.S.Gubayeva kabi etnograflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahsinga sazovordir[6]. Bu olimlar xalq va yoshlarning muloqot jarayonlaridagi madaniyati, muloqotdagi axloq madaniyati haqida tadqiqotlar o'tkazishadi. Tadqiqotchilar yoshlar og'zaki muloqoti, salomlashuv shakllari, so'zlashuvdagi ohang va odobga ta'sir etuvchi hududiy, ijtimoiy hamda etnik omillarni chuqur tahlil qilgan. Ular yoshlar muloqotida milliy qadriyatlar, oila tarbiyasi va axloqiy me'yorlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bu esa talabalarni jamiyat madaniyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy guruh sifatida ko'rsatadi. XX-asrda olib borilgan etnografik tadqiqotlar bizga nafaqat tarixni, balki bugungi kundagi muloqot madaniyatining ildizlarini anglashda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, talabalar hayotini o'rganish orqali biz yoshlar ongida shakllanayotgan madaniy, axloqiy va ijtimoiy me'yorlarning qanday tarixiy asosga ega ekanini tushunamiz. Bu tadqiqotlar bizga milliy o'zlikni anglash, o'zaro hurmat va madaniyatga asoslangan muloqotni qadrlash zarurligini eslatadi. Shunday ekan, tarixiy-etnografik merosni chuqur o'rganish va zamonaviy talaba hayotiga uyg'unlashtirish bizning ma'naviy taraqqiyotimiz uchun muhim qadamdir.

Markaziy Osiyo xalqlari tillari bo'yicha mutaxassis, sharqshunos olim Y.Polinovning tadqiqotlarida esa Samarqand va Buxoro talabalarining muloqotida eroncha dialektikning mavjudligini ochib berishga harakat qilgan.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari o'zbek xalqining madaniy xususiyatlarini yoshlar madaniyati bilan solishtirish orqali talabalaridagi o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Bu ilmiy ishlanmalar muloqot madaniyatini chuqur tahlil qilish, uni takomillashtirish va amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, globallashuv va raqamli muloqot sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu sababli, mahalliy tadqiqotchilar merosiga tayanib, talabalar orasida hurmatga asoslangan, madaniyatli muloqot madaniyatini shakllantirish zarur.

Raqamli texnologiyalar asrida talabalarining ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotida turli o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Talabalar o'zaro muloqotida ijtimoiy tarmoq tilidan foydalanishmoqda. Muloqotda yozishmalarda harflarning buzilgan shaklini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "o" harfi o'rniga "6", "sh" harfi o'rniga "w", "ch" harfi o'rniga "4" raqamlaridan foydalangan holda muloqot qilishmoqda. Ijtimoiy muloqotdagi bu buzulishlar, talabalarining o'zbek tilidagi yozuv salohiyatini pasaytirishga xizmat qiladi. Buni oldini olish uchun talaba yoshlar o'rtasida o'zbek tilida to'g'ri yozish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish kerak.

Etnopsixologik tadqiqotlarda V.G.Krisko talabalar muloqot madaniyatini o'rganishda ikki asosiy jihatga e'tibor qaratishni taklif etadi: muloqotning ruhiyati va milliy ijtimoiy guruhlarining muomala uslubi[7]. Bu yondashuv talabalar muloqotini chuqur tahlil qilishga imkon beradi, chunki har bir muloqot nafaqat axborot almashinuvi, balki madaniy qadriyatlar va shaxsiy holat ifodasidir. Talabalar ko'p hollarda turli millat va ijtimoiy guruh vakillari bilan muloqotda bo'lishadi, shu bois bu farqlarni hisobga olish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Bozorov M. "O'zbek tili shevalari", Toshkent, 2015.

Kriskoning fikrlari globallashuv sharoitida dolzarb bo'lib, talabalarni madaniyatlararo muloqotga moslashgan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

N.I.Fermanovskaya "So'zlashish etiketi va muloqot madaniyati" risolasida muloqotga ta'sir qiluvchi omillarni ikki guruhga ajratib o'rganishni taklif qiladi: ichki va tashqi birliklar[8]. Ichki omillarga shaxsning millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei va ta'sir omillariga yaqinligi kiradi. Tashqi omillar esa muloqot vaqti, holati va ishtirokchilarning ijtimoiy vaziyatidir. Bu yondashuv ayniqsa talabalar muhitida dolzarb bo'lib, ularning muloqotini har tomonlama tahlil qilishga yordam beradi. Chunki talabalar – o'zgaruvchan va turli ichki-tashqi omillar ta'sirida shakllanuvchi guruh hisoblanadi. Mazkur model muloqotdagi tushunmovchiliklarning sabablarini aniqlash va talabalarda madaniyatli, moslashuvchan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir talaba o'z shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy vaziyatga qarab qanday muloqot qilishni o'rganishi, o'zini to'g'ri ifoda etishi va boshqalarning hissiyotlarini inobatga olishi kerak, deb hisoblaymiz.

M.B.Utebayev qoraqalpoq talabalarining muloqot madaniyatini, xususan, salomlashish odobini o'rgangan[9]. Unga ko'ra, salomlashish - bu shunchaki ijtimoiy odat emas, balki madaniy meros va shaxsiy tarbiyaning ifodasidir. Talabalar orasida salomlashish uslublari - qo'l berib ko'rishish, qo'lga ko'ksiga qo'yish, ikki qo'l bilan salomlashish yoki bosh egish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yigitlar o'rtasida rasmiy salomlashuv uslubi hurmat ifodasi sifatida saqlanib qolgan. Qizlar esa muloyim jilmayish yoki bosh igrash orqali muloqotni boshlaydilar. Utebayev bu holatni an'anaviy qadriyatlarning yoshlar ongida saqlanayotgan belgisi sifatida baholaydi. Shuningdek, u hududiy farqlarni ham qayd etib, qishloq yoshlari salomlashuv marosimlariga ko'proq amal qilishlarini, shaharliklar esa soddalashtirilgan shakllarni tanlashlarini ta'kidlaydi. Tadqiqot salomlashuv odatlari orqali jamiyatdagi hurmat, ehtirom va ijtimoiy tartiblarning yoshlar orasida shakllanishini yoritadi. O'zbek talabalar orasida ham salomlashishning an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda yangi turlari ham paydo bo'lib kelmoqda. Masalan, talaba yigitlar orasida qo'l bergan holda boshni bir-biriga tekkazib salomlashish. Talaba qizlar o'rtasida qo'l urishtirib salomlashish odat tusiga kirmoqda. Bugungi globallashuv davrida an'anaviy milliy muloqot xususiyatlarini asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish katta ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Zamonaviy tadqiqotlarda individualizm tamoyillarining ustun qo'yilishi va targ'ib etilishi milliy hamda mahalliy madaniyatlarining ikkinchi darajaga tushishiga olib kelmoqda[10]. Bu esa lokal etiket qadriyatlarining asta-sekin yo'qolish xavfini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Talabalar hayotida til va muloqot madaniyatidagi o'zgarishlar bir madaniyatdan boshqa madaniy muhitga kelganda sodir bo'ladigan madaniy jarayon sifatida qabul qilinadi. Boshqa madaniy muhitga kelgan talabalar avvalo adaptatsiya jarayonlarini boshidan o'tkazishadi. Keyingi bosqichda mavjud madaniy muhitdan til va muloqotga doir bilimlarni o'zlashtirishadi. Keyingi bosqichda mavjud madaniyat tarkibidagi muhitga singib ketishi holatlari kuzatiladi. Talabalar hayotidagi til va muloqot jarayonlarining o'zgarishi, ular yashab turgan madaniy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Ularning madaniy o'zgarishlariga texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy muhit va boshqa jihatlarning ta'siri yuqori hisoblanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan til va muloqot madaniyati unsurlarini talabalar hayotida asta sekin yo'qolib borayotganligi bu kelajak avlodlar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan dalolat beradi.

2. Sharipov A. "Sotsiolingvistika asoslari", Toshkent, 2019.
3. Остроумов Н. П. Сарты. Этнографический материалы. – Ташкент, 1896. – С. 52., – С. 272;
4. Лыкошин Н. С. "Хороший тон" на Востоке : К полувековому юбилею завоевания русскими Туркестанского края / Н.С. Лыкошин. - Петроград: тип. Б.Д. Брукера, 1915. – С. 168.
5. Suxareva O. A. Buxara XIX – nachalo XX vv. – Moskva: Nauka, 1966. – S. 327;
6. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – С. 179–186.;
7. Крыско В. Г. Этнопсихология и межнациональные отношения. – М.: Экзамен, 2002.
8. Сухарев В. А. Характер, поведение и деловые качества народов мира / Этика и психология делового человека. – М., 1997. – С. 119.
9. Утебаев М. Б. Традиционно и новое в этикете каракалпаков (этнографический анализ). Дисс... т.ф.ф.д. (ПхД). – Нукус, 2019.
10. Narziyev N.N. O'zbeklarning an'anaviy muloqot madaniyati (tarixiy etnologik tadqiqot). T.f.f.d. diss..., Toshkent, 2022. 56-bet.
11. Dala yozuvlari. Toshkent, 2024-yil.